




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyati kichik tadbirkorlik 2021- yil yanvar-sentabr


Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **81,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **20,7** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida **3,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **103,4** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1101** ta, sanoatda **714** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **721** ta, qurilishda **208** ta, yashash va ovqatlanishda **198** ta, axborot va aloqada **83** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

99,2



Sanoat

49,8



Qurilish

96,1



Investitsiya

81,0



Savdo

86,8



Xizmatlar

61,2



Eksport

46,7



Import

84,2



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

20 270




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4125

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

28,8%



Sanoat

19,0%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

19,4%



Qurilish

10,7%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,2%



Tashish va saqlash

3,2%



Axborot va aloqa

1,3%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2%



Boshqa faoliyat turlari


9,2%



2019 y. 2020 y. 2021 y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-sentabr

■ 2021 y. yanvar-sentabr


2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – 25,6 %, Sharof Rashidov – 14,5 %, G'allaorol – 10,3 %, Zomin – 8,3 %, Baxmal – 7,7 %, Forish – 7,5 % tumanlar hissalariga to'g'ri keldi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
3 582 ta

Sanoatda
1 589 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
809 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
773 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 20,7 birlikni tashkil etdi.



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 6,0 birlik, Sharof Rashidov tumanida 3,3 birlik, G'allaorol tumanida 1,7 birlik, Zomin tumanida 1,6 birlik, Forish tumanida 1,5 birlik, Baxmal tumanida 1,2 birlik tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 67,8 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,7 % ini tashkil etdi.




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Zomin tumanida 81,6 %, Forish tumanida – 69,5 %, G'allaorol tumanida – 57,0 % ni, eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – 3,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **173,0** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **84,2 %** ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal, Zafarobod va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, G'allaorol tumanida – 99,8 %, Sharof Rashidov tumanida – 99,5 %, Forish tumanida – 99,1 %, . Eng past ko'rsatkich Arnasoy tumanida – 5,7 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2828,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (779,7 mlrd. so'm), G'allaorol (622,4 mlrd. so'm), Forish (235,3 mlrd. so'm), Paxtakor (205,7 mlrd. so'm) va Zafarobod (195,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangiobod tumanida (42,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **49,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, mirzacho'l va Yangiobod (100,0%), G'allaorol tumani (98,0%), Payariq tumani (96,4%), Forish tumani (86,2%), Zomin tumani (72,1%), Urgut tumani (73,9%), Paxtakor tumani (69,4%), Sharof Rashidov tumani (55,6%),ni tashkil etdi. Do'stlik tumani (10,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5214,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **86,8** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **12,2** % ga o'sishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (1160,7 mlrd. so'm), Zomin tumani (762,9 mlrd. so'm), Sharof Rashidov tumani (737,5 mlrd. so'm), Baxmal tumani (737,3 mlrd. so'm), G'allaorol (528,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



hajm, mlrd. so'm

o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2002,2** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **94,7 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **100,9 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (690,8 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (341,9 mlrd. soʻm), Zomin (181,5 mlrd. soʻm), Paxtakor (138,5 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (133,6 mlrd soʻm), Zafarobod (105,4 mlrd. soʻm) hamda Zarbdor (95,2 mlrd.soʻm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati



■ hajm, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2843,8** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **61,2 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **128,4 %** ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Jizzax shahri (683,4 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (479,2 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (327,3 mlrd. soʻm), Zomin (311,1 mlrd. soʻm), Baxmal (232,8 mlrd. soʻm), Forish (156,8 mlrd. soʻm) va Zarbdor (137,0 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,8 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,7 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **704** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 213 (30,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 435 (61,7%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 51 (0,7%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 % (51 ta), sanoatda – 10,2 % (71 ta), qurilishda – 5,7 % (40 ta) , savdoda – 27,6% (193ta), xizmatlar sohasida – 49,2 % (344 ta)ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (191 ta), Sharof Rashidov (101 ta), Forish (70 ta), G'allaorol (62 ta), Zomin (52 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 52,6%ni, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 12,7%ni xizmatlar sohasida 15,0%ni, sanoatda 13,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda 45,1 %ni, xizmatlar sohasida 16,8%ni, sanoatda 15,6% ni tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 40,5%ni savdo sohasida 28,6%ni, sanoatda 11,9 %,ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo sohasida 49,8%ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 15,3 %ni, xizmatlar 14,5%ni, tashkil etdi.

